



NIKOHDAN AJRALISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Malika Shukurova

Qarshi shahar FHDYO bo'limi mudirasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.13376015>

ARTICLE INFO

Received: 14th August 2024

Accepted: 15th August 2024

Published: 18th August 2024

KEYWORDS

oila, nikohdan ajralish, er-xotin, nikoh, sud, FHDYO, nikohlanuvchi shaxslar, huquq.

ABSTRACT

Ushbu maqolada nikohdan ajralishning o'ziga xos xususiyatlari, xususan nikohdan ajralishning huquqiy tabiati, fuqarolik huquqiy tartibga solishni takomillashtirish masalasi o'rganilgan. Jumladan, nikohdan ajralishga oid amaldagi qonunchilik va ular bilan bog'liq muammolar tadqiq qilinib, ularni takomillashtirishga oid echimlar ilgari surilgan.

Oilani davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, ularni har tomonlama jamiyatning asosiy bo'g'ini sifatida barqarorligini ta'minlash har bir mamlakatning doimiy e'tiborda bo'ladigan ustuvor yo'nalishlardan biri sanaladi. Binobarin, xalq oilalaridan tashkil topar ekan uning barqarorligi, oilalarning tinch va totuvligi mamlakatning rivoji va istiqbolini belgilovchi asosiy omil hisoblanadi. Hozirda O'zbekistonda oilalar barqarorligini ta'minlash, er-xotin o'rtasidagi ajralishlar sonini kamaytirish, oilani saqlab qolish imkonini beradigan ko'plab tashkiliy-huquqiy, ijtimoiy-siyosiy choralar belgilangan va bu boradagi huquqiy asoslar yaratilgan. Biroq, shunga qaramasdan er-xotin o'rtasidagi ajralishlar soni ularning o'sib borish dinamikasini ko'rsatadi.

Shu bois er-xotin o'rtasidagi ajralishlar sonini kamaytirish, oilalarning butunligi va barqarorligi saqlab qolish borasidagi tashkiliy-huquqiy mexanizmlarni kuchaytirish, bu borada amalga oshirilayotgan islohotlarni kuchaytirish zamon talabidir.

Dunyoda nikohdan ajralish so'nggi o'n yillikda nihoyatda ortib ketdi va ayrim mamlakatlarda 40-50% dastlabki nikoh bekor bo'lmoqda. Xitoy, Yaponiya, Hindiston kabi mamlakatlarning oila qonunchiligi nikohdan ajratishni birmuncha qiyinlashtirgan bo'lsa ham, ushbu mamlakatlarda nikohdan ajratish ikki, uch barobarga ortgan. Maldivda har ming kishidan 5,5 ko'rsatkich bo'lsa, RF dunyoda 3,9 ko'rsatkich bilan uchinchi o'rinda bormoqda. Undan keyingi o'rinda Xitoy 3,2 ko'rsatkich bilan etakchilik qilmoqda¹.

Yangi O'zbekistonni barpo etish sharoitida o'z navbatida nikohdan ajratish jarayonida bolalarning huquq va manfaatlarining to'sqinliklarsiz amalga oshirilishi uchun amaldagi qonun hujjatlarini yangi normalar bilan to'ldirish va takomillashtirish bo'yicha amaliy va nazariy takliflarni ishlab chiqarilishini taqazo etmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022 - 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmonida ijtimoiy sohani rivojlantirishga qaratilgan vazifalarni, jumladan xotin-qizlar faolligini oshirish, kam ta'minlangan oilalarga ijtimoiy yordam va xizmatlarni ijtimoiy shartnoma asosida taqdim etish, Yosh oilalarni ma'naviy va moddiy

¹ <https://wisevoter.com/country-rankings/divorce-rates-by-country/>

jihatdan qo'llab-quvvatlash, ular uchun munosib uy-joy va ijtimoiy-maishiy sharoitlarni yaratish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar tizimini amalga oshirish, ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalar va aholi qatlamlariga, shuningdek, vaqtinchalik og'ir sharoitga tushib qolgan fuqarolarga to'g'ridan-to'g'ri davlat ijtimoiy yordamini ko'rsatish ustuvor vazifa sifatida belgilandi.

Nikohdan ajratish o'z o'rnida huquqiy oqibat keltirib chiqaruvchi harakatlardan hisoblanib, muayyan huquqiy normalar bilan tartibga solinadi.

Nikohdan ajratish haqida tushunchalarni olimlar o'zlarining sub'ektiv nazariyalari va konsepsiyalariga asosan turlicha ta'riflashgan.

Ensiklopedik adabiyotlarda nikohni bekor qilish, turmush o'rtoqlarning shaxsiy va mulkiy huquqlarini bekor qilish hisoblanadi.²

Rossiyalik huquqshunos S.A.Muratova nikohni bekor qilish deganda ma'lum huquqiy faktorlarning kelib chiqishi sababli er-xotin munosabatlarining tugaganligi tushunilishi³ haqida o'zining fikrlarini bayon qilgan. Muallifning ushbu ta'rifi haqiqatga yaqin bo'lsa-da, biroq u o'zining bu ta'rifi bilan nikohdan ajratish yoki nikohni bekor qilish haqidagi fikrini umumiy, ya'ni noaniq doirada ifoda etgan. Shuningdek, olim o'zining fikrini davom etib, nikohni bekor qilish – qonun hujjatlarida nazarda tutilgan istisnolardan tashqari, kelajakda er-xotinlar o'rtasidagi munosabat va majburiyatlarni bekor qiladigan huquqiy hujjat⁴ ekanligini qayd etgan. Bu erda ham olim kelajakda er-xotinlar o'rtasidagi munosabat va majburiyatlarni bekor qilinishini ta'kidlagan bo'lsa-da, biroq bizningcha, ayrim holatlarda er va xotin nikohdan ajrashgan taqdirda ham, ular o'rtasidagi majburiyat va huquqlar saqlanib qolishini e'tibordan chetda qoldirgan. Olim nikohdan ajratish yoki nikohni bekor qilish haqidagi tushunchaga noaniqroq ta'rif bergan.

“Nikohdan ajratish” va “ajralish” atamaları oila huquq nazariyasida FHDYo organlari va sudlarning huquqni qo'llash amaliyotida, shuningdek, qonunda sinonim sifatida ishlatiladi. Inqilobgacha bo'lgan oilaviy qonunlarda nikohdan ajralishga “qonunda ko'rsatilgan sabablarga ko'ra qonuniy ravishda mavjud bo'lgan nikohni bekor qilish” deb ta'rif berilgan. Zamonaviy ilmiy adabiyotlarda nikohni bekor qilish, qoida tariqasida turmush o'rtoqlar hayoti davomida nikohni bekor qilish yoki kelajak uchun er-xotin o'rtasidagi huquqiy munosabatlarni tugatuvchi huquqiy akt sifatida talqin qilinadi.⁵

Rus huquqshunosi V.Izmaylovning fikriga ko'ra, nikohni bekor qilish - bu nikoh va oilaviy munosabatlarni tugatishga qaratilgan er-xotindan birining yoki ikkalasining xohish-irodasi mavjudligini nazarda tutadigan qonuniy jarayon sanaladi. Nikohni bekor qilishga nikohni tuzish shartlarining buzilishi, uning soxtaligi, shuningdek uni tugatishning tabiiy sabablari (er-xotindan birining vafoti) sabab bo'lishi mumkin⁶.

X.S.Nasimov va G.M.Mamaraimovalar esa nikohdan ajrashishni turlarga bo'lib o'rganishga harakat qilishgan. Bu bilan o'ziga xos tarzda ajrashishga doir mohiyatni anglashga harakat qilingan. Xususan:

- nizoli nikohdan ajralish;
- aybli nikohdan ajralish;

² Введенский Б.А. “Большая Советская энциклопедия” 2-нашр. М.: 1955. – Б. 418.

³ Муратова С.А. Семейное право. – М.: Юриспруденция, 2001, – Б 72

⁴ Муратова С.А. Семейное право. – М.: Юриспруденция, 2001, – Б 75

⁵ Пчелинцева Л.М. Семейное право России. – М.: Норма-инфра,1999, – Б 138-139

⁶ Измайлов В.В. Правовая природа и некоторые проблемы расторжения брака в России // Пролог: журнал о праве / Prologue: Law Journal. – № 3 – 2018. – В 41. Elektron manba: file:///C:/Users/User/Downloads/pravovaya-priroda-i-nekotorye-problemy-rastorzheniya-braka-v-rossii.pdf

- soddallashtirilgan tartibda nikohdan ajralish;
- aybsiz nikohdan ajralish;
- nizosiz nikohdan ajralish;
- birgalikda murojaat bo'yicha nikohdan ajralish;
- elektron tartibda nikohdan ajralish;
- mediatsiya tartibida nikohdan ajralish.

Mualliflarning fikricha, nikohdan ajralish er-xotin tiriklik paytida ro'y berishi mumkin bo'lgan yoki ularning arizasiga ko'ra vakolatli davlat organi tomonidan tugatilishi mumkin⁷. Fikrimizcha, bu o'rinda nikohdan ajrashish uchun garchi er-xotinning tirik bo'lishi zaruriy yuridik fakt hisoblansada, erk-irodaning mavjud bo'lishi nikohdan ajratishda garchi yakuniy omil bo'lmasada, muhim o'rin egallaydi.

Avvalo, **“ajrim”**, **“nikohni haqiqiy emas deb topish”** va **“nikohdan ajratish”** tushunchalarini va ularning huquqiy tabiatini farqlay olish lozim. Sababi har uchala jumlaning ma'nosi bir qarashda o'xshash tuyulgani bilan huquqiy oqibati turlichadir.

Ajrim – fuqarolar kundalik hayotida ishlatishi uchun qulay bo'lgan, er va xotinning turmushi buzilganligini ifodalovchi tushuncha bo'lib, qoida tariqasida er va xotin o'rtasidagi qonuniy nikohning bekor qilinishini anglatadi.

Nikohdan ajratish bu – qonuniy tartibda nikohdan o'tgan, qonun normalari belgilangan o'zaro huquq va majburiyatlariga ega bo'lgan er va xotinning sud yoki nikohdan ajratish vakolatiga ega bo'lgan boshqa organ tomonidan qonuniy tartibda o'tgan nikohning bekor qilinishi va nikohdan o'tgandan so'ng yuzaga kelgan o'zaro huquq va majburiyatlarining tugatilishi hisoblanadi. Ya'ni nikoh bekor qilingan kundan keyin huquqiy oqibat keltirib chiqaruvchi ijtimoiy munosabat hisoblanadi. Nikohdan ajratish va nikohni haqiqiy emas deb topishning farqi ham aynan shunda, ya'ni nikohdan ajratish nikoh tuzilgan kundan emas, nikoh bekor qilingan kundan hisoblanadi.

Umuman olganda, nikohdan ajratish bu er va xotin o'rtasida tuzilgan oilaviy munosabatlarning batamom tugatilganligi hisoblanadi. Farzand va ota-onalar o'rtasidagi oila huquqiy munosabatlar esa saqlanib qoladi.

Nikohni haqiqiy emas deb topish oqibatlari nikohdan ajralishning huquqiy oqibatlaridan jiddiy farq qiladi. Haqiqiy bo'lgan nikohdagilar nikohdan ajratilganlaridan so'ng nikohning umri tugaydi. Nikoh haqiqiy emas deb topilganda u sud tomonidan haqiqiy emas deb topilgan vaktan emas, balki u nikoh tuzilgan vaqtdan e'tiboran haqiqiy emas deb topiladi.⁸

Nikohdan ajratish va nikohni haqiqiy emas deb topishdan tashqari, “nikohning tugatilishi” tushunchasi ham mavjud bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 37-moddasiga ko'ra, er-xotindan birining vafoti yoki sud ulardan birini vafot etgan deb e'lon qilishi oqibatida nikoh tugaydi.

So'nggi paytlarda ijtimoiy munosabatlar rivojlanib, insonlar psixologik jihatdan fikrlash doirasi ham o'zgarib borayotganini kuzatishimiz mumkin. Ayniqsa, g'arb mamlakatlarida bu holatlar yaqqol namoyon bo'lmoqda.

Hozirgi vaqtda ayrim olimlar nikohni tugatish uchun yana bir asosni ko'rib chiqmoqdalar, ya'ni turmush o'rtoqlardan birining o'z jinsini o'zgartirishini vafot etganga tenglashtirish masalasi ustida bosh qotirmoqda.⁹

⁷ Nasimov X.S., Mamaraimova G.M. Nikoh: milliy va xorijiy tajriba./Axborot-tahliliy material. – T.: TDYuU, 2019. – B 40.

⁸ O'zbekiston Sudyalar Assotsiatsiyasi. “Oila kodeksiga sharhlar”. T. Adolat-2000. 110-b

⁹ Митина А.Е. Прекращение брака вследствие смерти или объявления одного из супругов умершим.Казань. «Издательство Молодой ученый» / Молодые учёный. 5 часть. 2019. Б 256

Nikohdan ajratish **FXDYo organlari** yoki **sud tartibida** amalga oshiriladi. Har ikkala jarayonda ham tegishli FXDYo organlarida tuzilgan nikoh ushbu organlarning nikohdan ajratish haqidagi hujjati qabul qilingan kundan bekor qilingan hisoblanadi.

Oilalarni mustahkamlash, xotin-qizlarning qonuniy huquq va manfaatlarini himoya qilish, notinch oilalarda sog'lom muhitni barqarorlashtirish maqsadida keng ko'lamdagi ishlar amalga oshirilayotganligi, sud organlarining joylardagi oila markazlari va xotin-qizlar qo'mitalari bilan hamkorlikdagi faoliyat yuritayotganligiga qaramay, xanuzgacha nikohdan ajratish bilan bog'liq fuqarolik ishlari ko'lami yuqoriligicha qolmoqda. Bunday nizolarni huquqiy ta'sir choralari bilan kamaytirish murakkab masala hisoblanib, bugungi kunda nikohdan ajratish bilan bog'liq ishlar soni ortishi huquqiy asoslarning kamligidan emas, balki ijtimoiy omillarning ta'siri yuqori ekanligini, jumladan, yosh er va xotinning oila qurishga moddiy, ahloqiy, jismoniy jihatdan tayyor emasligi, oilaning muqaddas dargoh ekanligini his qilmay turib, o'ylamasdan nikoh munosabatlariga kirishish, natijada ular o'rtasidagi xarakterlarning to'g'ri kelmasligi kabilar bo'lmoqda.

Fikrimizcha, bo'lajak er va xotinning kelgusida turli kasalliklar tufayli nikohdan ajralishi hamda nikohdan ajrashgandan so'ng ularga keltirilishi mumkin bo'lgan zararni bartaraf etish uchun "Nikohlanuvchi shaxslarni tibbiy ko'rikdan o'tkazish to'g'risida"gi Nizomning 34-bandini quyidagi jumla bilan to'ldirish taklif etiladi:

"Nikoh qayd etilgandan so'ng nikohlanuvchi shaxslarning birida mazkur Nizomning 1-ilovasida nazarda tutilgan kasalliklar aniqlangan taqdirda, ko'rikni o'tkazgan tibbiyot xodimi qonunchilikda belgilangan tartibda ma'muriy va jinoiy javobgarlikka tortiladi. Basharti bu kasalliklar nikohni bekor qilinishiga sabab bo'lsa, nikohlanuvchi shaxslar va ularning otanalari hamda ularning o'rnini bosuvchi shaxslarning arizasiga ko'ra etkazilgan zarar uchun javobgar bo'ladi".

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Введенский Б.А. "Большая Советская энциклопедия" 2-нашр. М.: 1955. – Б. 418.
2. Муратова С.А. Семейное право. – М.: Юриспруденция, 2001, – Б 75
3. Пчелинцева Л.М. Семейное право России. – М.: Норма-инфра,1999, – Б 138-139
4. Измайлов В.В. Правовая природа и некоторые проблемы расторжения брака в России // Пролог: журнал о праве / Prologue: Law Journal. – № 3 – 2018. – В 41. Elektron manba:file:///C:/Users/User/Downloads/pravovaya-priroda-i-nekotorye-problemy-rastorzheniya-braka-v-rossii.pdf
5. Nasimov X.S., Mamaraimova G.M. Nikoh: milliy va xorijiy tajriba./Axborot-tahliliy material. – T.: TDYuU, 2019. – В 40.
6. O'zbekiston Sudyalar Assotsiatsiyasi. "Oila kodeksiga sharhlar". T. Adolat-2000. 110-b
7. Митина А.Е. Прекращение брака вследствие смерти или объявления одного из супругов умершим.Казан. «Издательство Молодой ученый» / Молодые учёный. 5 част. 2019. Б 256
8. <https://wisevoter.com/country-rankings/divorce-rates-by-country/>